

TARJIMA VA UNING TURLARI

Holiqulova Umida Nuriddin qizi.

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi.

Ilmiy rahbar: Nafisa Isomiddiniva

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima turlari tushunchasini, uning asosida tarjima uslublari, agar og'zaki va yozma tarjimonlar ba'zi talablarni bajarish kerak bo'lsa, u holda uning afzalliklari va farqi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarjima, matn, badiiy tarjima, og'zaki tarjima, tarjima taraqqiyoti.

Annotation: This article will talk about the concept of types of translation, the methods of translation based on it, if oral and written translators need to fulfill some requirements, then its advantages and differences.

Keywords: translation, text, artistic translation, oral translation, translation progress.

Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima - millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan. Km

Zamonlar osha tarjimaga bo'lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmaydi. Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi. „Tarjima“ termini bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi.

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — alohida „badiiy voqelik“ unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini

kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hammavaqt o‘z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezonini bo‘lib xizmat qiladi.

R. K. Min‘yar-Beloruhev tasnifiga ko‘ra quyidagi tarjima turlari mavjud:

- 1) yozma tarjima; 2) sinxron tarjima – og‘zaki; 3) izchil tarjima;
- 4) varaqdan tarjima.

U yana nima tarjima qilinayotganligiga qarab tarjimaning quyidagi turlarini ajratish mumkin: 1) badiiy tarjima; 2) ijtimoiy-siyosiy tarjima; 3) ilmiy-tarjimaviy tarjima. Tarjima jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat sivilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko‘rsatadi.

Sinxron tarjima og‘zaki tarjimaning eng qiyin turi bo‘lib, undan tarjimon gapiruvchi notiqdan bir so‘z yoki jumlagina orqada qolib tarjima qiladi, unga tarjima uchun vaqt berilmaydi. Tarjimon bunday paytda ham eshitadi, ham tushunadi, ham tarjima qiladi, ham gapiradi.

Mana shu operatsiyalarning barchasini sinxron tarjimon bir vaqtda bajaradi. Bu esa undan chuqur bilim saviyasidan tashqari, tez mulohaza qilish, tez tushunish, tezda to‘g‘ri va to‘laqonli tarjima qilishni talab etadi. Bu tarjima ingliz tilida “simultaneous/synchronous translation” deb yuritiladi.

Yozma tarjima va og‘zaki tarjima

Og‘zaki izchil tarjima sinxron tarjimadan oraliqdagi tarjima uchun berilgan vaqtlar bilan, qayta tarjima qilish imkoniyati borligi bilan ajralib turadi. Bunday tarjimada tarjimon avvalo notiqni tinglaydi, keyin uni mulohaza qilib, tarjima qiladi. Bu ingliz tilida “consequent translation” deb ataladi.

Yozma-yozma tarjima uzoq tarixga ega. U eng ko‘p qo‘llaniladigan tarjima turlaridan bo‘lib, minglab badiiy asarlar, millionlab hujjatlar va undan ham ko‘proq ilmiy texnikaviy adabiyotlarning tarjimasi hisoblanadi. Bu tarjimoni amalga oshirish unchalik murakkab extralingvistik shart-sharoitlarni talab qilmaydi, chunki tarjimonga to‘laqonli tarjima berish uchun barcha imkoniyatlar berilgan, yetarli vaqt, istalgan sharoit, qayta-qayta tarjima qilish, kim bilandir kengashish, maslahatlashish kabi katta imkoniyatlar berilgan.

Yozma-og‘zaki tarjima yozma matnning og‘zaki tarjimasi demakdir. Bunday tarjima hayotda ko‘p uchraydi. Bunga telegrammalar, yo‘l-yo‘riqlar, xatlar, hujjatlar va hokazolarning tarjimalari misol bo‘lishi mumkin.

Og‘zaki-yozma tarjima ham tez-tez qo‘llanib turadi, masalan, qandaydir og‘zaki nutqning yozma tarjimasi, og‘zaki suhbatning (muloqotning) yozma tarjimasi misol bo‘la oladi. Har bir tarjima turi o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Ketma-ket (izchil) tarjima

Ketma-ket tarjima qilish bu bir tildagi og‘zaki axborot berilgandan so‘ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so‘zlovchining umumiy fikrlari yoki eng

kamida asosiy abzasni tinglaydi va so'ng tinglash chog'ida yozib olingan eslatmalar (note-taking) yordamida nutqni tarjima qiladi.

Tarjimon shu tariqa asosiy so'zlovchi nomidan ketma-ketlikda so'zlaydi. Ba'zi so'zlovchilar bir nechta gap so'zlab, so'ng tarjimonga tarjima qilishni taklif qilishadi. Tarjimon qisqacha yozib olmasdan ham ishlashi mumkin va u o'z xotirasida aytilgan gaplarni saqlaydi. Shunday qilib, ketma-ket tarjima so'zlovchining nutqini tinglangandan so'ng bajariladi. Bunday vaziyatda axborotning barcha mazmunini yodda saqlab qolish zarur. Ketma-ket tarjima muzokaralar, konferensiyalar davlat arboblari va siyosiy shaxslarning uchrashuvlarida va delegatsiyani kuzatib yurish chog'ida qo'llaniladi. Ketma-ket tarjima muammosi ilmiy adabiyotlarda ham yetarlicha muhokama qilinmagan. Ketma-ket tarjima qilish vaqtiga ko'ra 2 bosqichga ajratiladi.

Birinchi bosqich, so'zlovchining nutqini o'z ichiga oladi va bu bosqichda tarjimon qisqacha nutqni yozib olishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda tarjimon aytilgan xabarni yozib olganlaridan foydalangan holda tarjima qiladi.

Inson hotirasi barcha gapni (ma'mumotni) yodda saqlab qololmaydi. Tarjimon matnda fikrning mantiqiy zanjirini topishi va so'zlovchi nutqining semantik asosini ochib berishi muhimdir. Shunday qilib, tarjimon so'zlovchining gapini yodda saqlab qolish uchun butun matnni tushunish irkonini beruvchi va gapini asosini yodda saqlab qolishga yordamlashuvchi semantik asosni topib, uni tarjima qilishi zarur.

Inson odatda 7 yoki 5 ta semantik asosni yodda saqlay oladi. Gapning asosiy semantik asosi birinchi navbatda kesim va egani o'z ichiga olishi kerak. Ba'zi tarjimonlar asosiy semantik asos birinchi navbatda kesim bilan ifodalanadi deyishadi. Lekin bir qator tilshunolar kesim gapning mustaqil bo'lagi bo'lolmaydi deb yozishadi. Faqatgina ega bilan birgalikda gapning mazmuni anglanishi mumkin. Misol: Traktor zavodining 1200 ta ishchisi shu zavodning ma'muriyati tomonidan 240 ta ishchini ishdan bo'shatish uchun chiqargan buyrug'iga qarshi norozilik namoyishida qatnashdi.

Ushbu gapda biz avval egani topib olishimiz lozim, so'ng kesimni, so'ng gapning vositachi bo'lagini. Bu gapning semantik asosi "1200 ishchi 240 ishchini bo'shatilishiga qarshi norozilik mitingida qatnashdi" deyilganidir.

Ketma-ket tarjima qilishning 3 ta asosiy prinsipi mavjud: Anglash, tahlil qilish va qayta ifoda qilish.

Anglash prinsipida so'zlar emas, fikrlar tarjima qilinishi kerak. Agar tarjimon so'zlovchining nutqidagi biron bir so'zning tarjimasini biimasa, u bu so'zning ma'nosini kontekstdan anglab yetishi zarur. So'zlovchining nutqini e'tibor bilan tinglash juda muhimdir. Ma'noni eslab qolish uchun asosiy fikrlarni va ular orasidagi bog'lanishlarni bilish muhimdir.

Har qanday nutqda 2 ta asosiy lahza majud. Ular nutqning boshlanish va tugashidir. Tarjimon aynan shularga o'z e'tiborini qaratishi lozim. Agar u aniq bo'lmasa va o'tkazib yuborgan bo'linsa, so'zlovchiga fikringizni oydinlashtira olasizmi? deb savol bering. Tarjimon so'zlovchining fikrini o'zining so'zlari orqali ko'proq ifoda etsa, tarjimaning sifati yahshiroq bo'ladi. Tarjimon ko'proq ijodiy yondoshsa, uning tarjimasi to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.ziyonet.uz sayti
2. cyberleninka.ru
3. www.wikipedia.uz sayti.